

A. Matnazarov, I. Xadjiyev



KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA PEDAGOGIK AMALIYOTNI O'TKAZISH



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

A. Matnazarov, I. Xadjiyev

**KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA PEDAGOGIK AMALIYOTNI
O‘TKAZISH**

Uslubiy qo‘llanma

Uslubiy qo‘llanma Urganch davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2011-yil 30-noyabrda bo‘lib o‘tgan majlisi qarori (2-bayonnoma) asosida nashrga tavsiya etilgan.

Urganch – 2012

UDK: 371.133.2(075)

KBK: 74.56

M31

A. Matnazarov, I. Xadjiyev. Kasb-hunar kollejlarida pedagogik amaliyotni o'tkazish. Uslubiy qo'llanma. Mas'ul muharrir. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. Urganch, Urganch davlat universiteti noshirlik bo'limi, 2011. 32 bet.

Ushbu uslubiy qo'llanma kasbiy ta'lim yo'nalishlarining davlat ta'lim standarti va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida nizomga asosan ishlab chiqilgan. Unda pedagogik amaliyotning maqsadi va vazifalari, o'zlashtirish talablari, pedagogik amaliyot davomida talabalar tomonidan hisobot uchun tayyorlanadigan kasb-hunar kollej o'qituvchisining me'yoriy hujjatlarini rasmiylashtirish uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma pedagogik amaliyot rahbarlari hamda kasb ta'limi yo'nalishi talabalari va kollejning yosh o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir

Taqrizchilar:

R. F. Radjapov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,

X. Choriyev, Urganch qurilish kasb-hunar kolleji direktori o'rinbosari

ISBN 978-9943-4029-2-8

©UrDU nosirlik bo'limi, 2012

© R. Matnazarov, I. Xajiyev. Kasb-hunar kollejlarida pedagogik amaliyotni o'tkazish

MUNDARIJA

1	Kirish	4
2	Amaliyot bo'yicha me'yoriy hujjatlar	4
3	Amaliyotning maqsadi va vazifasi	5
4	Amaliyot jarayonini o'tkazish tartibi va o'zlashtirish talablari.....	5
5	Amaliyot ishtirokchilarining vazifalari	9
6	Kundalikni daftarlarini rasmiylashtirish	10
7	Amaliyotning nazorat turlari.....	12
8	Amaliyotni baholash mezonlari	13
9	Xulosa	14
10	Ilova.....	15

KIRISH

Mustaqil respublikamizning ta'lim islohoti hamda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risidagi ko'rsatmalar, kadrlar tayyorlash milliy dasturlari, ayniqsa, oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarni har tomonlama yetuk, bilimdon, mas'uliyat va burchini chuqur his qiladigan qilib tayyorlashni nazarda tutilmoqda.[1]

Bo'lajak kasb ta'limi yo'nalishi mutaxassislarini tayyorlashda pedagogik amaliyot yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Unda talaba oliy ta'lim muassasalarida olgan nazariy bilimlarini boshqalarga o'rgatish malakalarini hosil qiladi.

Amaliyotda talaba kasb-hunar kollej o'qituvchisining ishi murakkab va sharaflilik ekanini ko'radi ishda yuz beradigan qiyinchiliklarni bartaraf qilish usullarini o'rgatadi, o'qituvchi murabbiy uchun zarur kasbiy sifatlarni shakllantira boshlaydi.

Amaliyot pedagogik faoliyatning muhim va qimmatli tomonlarini ochishga yordam beradi. Amaliyot davomida bo'lajak muhandis-pedagog o'quv-tarbiya jarayonini har tomonlarini kuzatadi, tahlil qiladi, dars o'tishni o'rganadi, mashg'ulot o'tadi, talaba bilan tarbiyaviy ishlar olib boradi.

Mazkur uslubiy qo'llanmada amaliyotning o'zlashtirish talablari va amaliyotni samarali tashkil qilish uchun davlat ta'lim standartlari (DTS), O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy o'quv yurtlari talabalarining malakaviy amaliyoti haqidagi nizomi" asosida ishlab chiqilgan bo'lib, kasb ta'limining texnik sohalariga mo'ljallangan. [4]

AMALIYOT BO'YICHA ME'YORIY HUJJATLAR

Pedagogik amaliyotni samarali tashkil qilish uchun quyidagi me'yoriy hujjatlar bo'lishi shart:

- davlat ta'lim standarti;
- amaliyot nizomi;
- amaliyot dasturi;
- amaliyot shartnomasi;
- amaliyot rejasi;
- amaliyot kundaligi.

AMALIYOTNING MAQSAD VA VAZIFASI

Pedagogik amaliyot davrida talabalarning kasb-hunar kollejida ishlashga tayyorgarlik darajasi oshadi. Darsni va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda ularning bilim malakalari qay darajada shakllanganligi ma'lum bo'ladi. Talablar qaysi fanlarni yaxshi o'zlashtirilganligi va qaysilariga e'tibor sust bo'lgani, dars konspektini va darsdan tashqari tadbirlarni mustaqil tashkil qila oladimi, ko'rgazmali qurollarni tayyorlay oladimi, umuman olganda, ular o'zlarining pedagogik qobiliyatlarining yetarliligini sinab ko'radilar. Ko'pincha, amaliyot davrida talablar nazariy va amaliy ishlarni bog'lashda, amaliy ishlarni namoyish qilib ko'rsatishda ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yadilar, dars o'tish va darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazishda turli xil qiyinchilik va muammolarga duch keladilar.

Pedagogik amaliyot davomida amaliyotchi talabalar amaliyot rahbarlaridan kerakli maslahatlar olgan holda, o'zlari yo'l qo'ygan kamchiliklari hamda muammolarning kelib chiqish sabablarini va ularni bartaraf qilish yo'l-yo'riqlarini o'rganib oladilar va shular barobarida, ularning tajribalari oshadi. Natijada talablarning nazariy bilimlarigina mustahkamlanib qolmay, balki pedagog uchun zarur bo'lgan amaliy malaka va ko'nikmalari ham tobora takomillashib boradi. [2]

AMALIYOT JARAYONINI O'TKAZISH TARTIBI VA TALABLARI

Amaliyotning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda, amaliyot jarayonini o'tkazish tartibi va talablari quyidagicha bo'ladi:

No	Amaliyot jarayonini o'tkazish tartibi va o'zlashtirish talablari
1	– kasb-hunar kollejining jamoa faoliyati tizimi va o'quv-tarbiyaviy ishlarni o'tkazishni o'rganish; – kollejning ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish va natijasini rasmiylashtirish.
2	– kadrlar tayyorlash milliy modelini hayotga joriy qilish. Pedagoglarning boy tajribalarini o'rganib, zamonaviy, ijodiy-mahsuliy sifatlarini o'zlarida shakllantirish ishlarini olib borish. Buning uchun: – kollejda har kuni 6 soat qat'iy reja asosida ishlash;

	– har kuni kamida 2 soat dars kuzatish; – uslubiyat o'qituvchi bilan kasb-hunar kollejining maxsus fan o'qituvchilarining mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil qilish (Dars qanday tahlil qilinishi haqida ilovada na'muna ko'rsatilgan).
3	– darsga kerakli o'quv-me'yoriy hujjatlarni tayyorlash. Buning uchun kollej mutaxassislikining DTS va o'quv reja, asosan, bitta fan bo'yicha ishchi dastur va taqvim reja, shu asosda ma'ruzani yoki amaliy mashg'ulot materialini tayyorlash (2-, 3-, 4-, 5-ilovada ushbu materiallarni rasmiylashtirish berilgan; – kamida 2–4 soatlik dars konpektini tuzib qo'yish va kollej maxsus fan o'qituvchisi yoki amaliyot rahbaridan tegishli uslubiy maslahatlar olish.
4	Darsga kerakli didaktik vositalarini tayyorlash va qo'llash. Shunga ko'ra, o'quv yurtida qanday o'qitish texnik vositasi bor va qayerda ishlatilishini bilishi uchun: – o'zi o'tadigan faniga oid bo'lgan ko'rgazmali qurollar, o'quv filmi, texnik vositalarni mavjudligi va ishga yaroqliligini aniqlash. Agarda asbob-uskunalar yetarli bo'lmasa, mavzuga oid ko'rgazmalar tayyorlash; – kamida 2–4 soat dars o'tish, har bir darsni ko'rgazmali qurollar asosida va o'qitishning texnik vositalaridan foydalangan holda o'tish.
5	– o'qitishning usullari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga qo'llab, mashg'ulot o'tish kerak. Buning uchun o'qitish uslublarini yozish va yuqorida tanlangan mashg'ulot bo'yicha ikkita o'qitish texnologik xaritasini tuzish; – mutaxassislik fanlari bo'yicha o'zlashtirishi past o'quvchilarga yordam berish. – mustaqil ravishda bir necha dars fragmenini (yangi mavzuning bayoni, uyga vazifani tushuntirish) o'tkazish va h. k.
6	O'MKHT muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni o'rganish kerak bo'lib, bunda: – o'ziga birkirilgan guruh rahbari va guruh jurnali bilan tanishish; – guruh tarbiyaviy rejasi tayyorlash; – o'ziga birlashtirilgan guruh talabalarining ismlarini to'la bilib olish; – guruh «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati uyushmasi raisiga guruh tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish va tashkil etishga yordam be-

	rish; – guruh rahbari bilan birgalikda muntazam ravishda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni o'tkazish; – talabalar o'rtasida uyushtiriladigan turli xil mavzulardagi musobaqalarni tashkil etish; – mustaqil ravishda turli tarbiyaviy mashg'ulotlarga tayyorgalik ko'rish va o'tkazish; – mustaqil ravishda suhbat darslarini tashkil etish; – rahbarlik qiladigan guruhdagi ilg'or va o'zlashtirishi past talablarni aniqlab, ular bilan yakka tartibda ishlash tadbirlarini ishlab chiqish; – amaliyotchi talaba guruh rahbari vazifasini bajarib, quyidagilarni amalga oshiradi: 1) 1–2 o'quvchini kuzatib, unga psixologik tavsifnoma yozish; 2) guruhning murabbiylik soatlarida fan kechasi o'tkazish; 3) kamida bir marotaba darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirni amalga oshirish, (bunga fan kechasi, kasb ilg'orlari bilan uchrashuvlar, tadbir mavzusiga oid gazeta chiqarish, to'garaklarda mashg'ulotlar tashkil etish kabilar kiradi); – talablar bilan ish rejasiga oid sayohatlar (ekskursiya) tashkil etish (Hujjatlarni rasmiylashtirish 6.-7- va 8-ilovada berilgan).
7	– O'MKHT muassasalarida o'quv-me'yoriy hujjatlardan foydalanib, kasbiy fanlar, ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha dars o'tkazishni o'rganish; – topshiriq bo'yicha ma'lum bir kasbiy fan va ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha amaliyot o'tadilar va ularga me'yoriy hujjatlarini tayyorlash (mashg'ulot me'yoriy hujjatlarini to'ldirilishi ilovada berilgan); – amaliyot rahbarlari tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish tadbirlarini belgilash va rejasini tuzish.
8	O'quvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar asosida nazorat qilish va baholash usullarini o'rganish.
9	Tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha kasbiy fanlardan dars o'tadilar va ishlab chiqarish amaliyotlariga rahbarlik qiladilar, buning uchun: – baholash turlari va mezonlari yordamida 1 guruhni baholash (har bir semestr so'ngida o'quvchilarni umumiy reyting ballar e'lon qilindi. Amaliyotchi talaba buni, albatta, nazarda tutishi zarur, shuning

	uchun u dars jarayonida o'quvchilarning kollej reyting nizomiga asosan baholab borishi va talablarning reyting ballarini o'z vaqtida e'lon qilib borishi zarur. Bu borada ko'proq bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlab, ularni o'rta va undan yuqori holatga ko'tarishga, ilg'or o'quvchilar bilan turli zamonaviy masalalarni hal qilib, kasbiga va maxsus faniga bo'lgan qiziqishlarini yana-da ortishiga erishish kerak); – amaliyot rahbarining vazifalari va uni olib borishni o'rganish; – dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni maxsus dastur va reja asosida tashkil etish (amaliyotchi talaba uslubiyatchi yoki amaliyot rahbari, o'qituvchi oldiga kerakli maslahatlar kirganda, uning qo'lidagi o'tadigan darsning yoki darsdan tashqari tadbirlarning rejasi bo'lishi, tegishli maslahatlarni olgandan keyin, dars konspekti ana shu darsni o'tishdan kamida bir kun ilgari tasdiqlatish); – guruh rahbari, mutaxassislik o'qituvchisi hamda ishlab chiqarish ta'lim ustasidan navbatdagi bajariladigan ishlar bo'yicha topshiriqlar olish; – kasb fani o'quvchilariga hamda ishlab chiqarish ta'limi ustalariga darsga o'quv xonalarini tayyorlashda va o'tkazishda yordam berish.
10	– o'zlariga ajratilgan kasbiy fanlarni o'qitishda va kollej o'quvchilariga amaliyot o'tishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash; – kasbiy fan o'qitish va amaliyot o'tishda pedagogik texnologiyalarning turlarini tuzishni va ularni tanlay bilish uchun kollejning tajribalaridan foydalanish; – buning uchun darslardan oldindan tayyorgarlik ko'rish (amaliyotchi talabaning mashg'uloti samarali chiqishi uchun, avval, u o'z kursdoshlariga va uslubiyatchiga dars o'tib ko'rsatsa, maqsadga muvaffaq bo'ladi. Bu vaqtda u doskadan unumli foydalanishi, mavzuni bayon qilish sur'ati, tajribani to'g'ri o'tkazish, har qanday amaliy ishni bajarish, texnika xavfsizligi rioya qilish, asbob uskunlardan to'g'ri foydalanish yo'llarini aniqlab olish).
11	– kollej jamoasi oldida o'z-o'zini boshqara olishi (ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik mahorati, o'z-o'zini boshqarish, xulqi o'quvchilar bilan muomalasi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun har bir amaliyotchi talaba intizomli, madaniyatli, xushmuomala, so'zining ustidan chiqadigan bo'lishi, har bir ishni bajarishi, o'ziga va boshqalarga e'tibor berishi, dars konspektini, rejasi yoddan bilmog'i,

- | |
|---|
| <ul style="list-style-type: none">– qo‘shimcha misollar, faktlar bilan boyitiladigan bo‘lmog‘i kerak);– tanlagan mavzusi bo‘yicha referat yozish;– o‘tkazilgan amaliyotlar natijasida hisobotlar tuzish va topshirish (9–10-illovalar). |
|---|

AMALIYOT ISHTIROKCHILARINING VAZIFALARI

Talabning asosiy vazifalari

- talaba pedagogik amaliyoti dasturida ko‘zda tutilgan topshiriqlarni to‘liq bajarish;
- amaliyot ob‘ektining ichki tartib-qoidalariga, hayot xavfsizligi, gigiyena va sanatoriya qoidalariga qat’iy rioya qilish;
- kundalik yuritish va unda ob‘yekt to‘g‘risida dastlabki taassurotlar, berilgan topshiriqlar, uning ijrosi, tahlil va xulosalarini qayd etib borish;
- amaliyot rahbarining boshqa ko‘rsatmalariga to‘liq amal qilish va barcha qo‘shimcha tadbirlarda faol ishtirok etish;
- kundalik va yozma hisobotni o‘z vaqtida amaliyot rahbari topshirish hamda hisobotni kommissiya oldida himoya qilish. [3]

Amaliyot bo‘yicha rahbarning vazifalari

- kafedra mudiri bilan birga ishchi o‘quv dasturi tuzadi va talabalar uchun topshiriqlar beradi;
- amaliyot ob‘yektiga oldinroq borib, uni, talablarni qabul qilishga tayyorlaydi;
- talabalarni umumiy va yakka tartibgacha topshiriqlar mazmuni bilan tanishtiradi va uni bajarish bo‘yicha zaruriy ko‘rsatmalar beradi, uslubiy yordam uyushtiradi hamda vaqtida sifatli bajarilishini nazorat qiladi, material yig‘ish va tartibga solishga ko‘maklashadi;
- ichki tartib-qoidalar, hayot va yong‘in xavfsizligi, sanitariya va gigiyena qoidalari bo‘yicha mashg‘ulot va suhbatlar uyushtiradi, ushbu qoidalarga qat’iy rioya qilishini ta’minlaydi;
- qo‘shimcha ma’ruzalarni ma’zmunli o‘tkazish choralari ko‘radi;
- talabalarning kundalik yuritishlarini, bajarayotgan ishlari va olib borayotgan yozuvlarini tekshirib, kuzatib boradi va zaruriy maslahatlar beradi;

- amaliyot davrida talabalarining bo'sh vaqtlarini ko'ngilli va mazmunli o'tkazish chorasini ko'radi;
- talabalarining kundalik va hisobotlarini qabul qilib oladi va komissiyaga taqdim qiladi;
- amaliyot yakuni bo'yicha kafedra mudiriga hisobot beradi.

Kafedra mudirining vazifalari

- amaliyot bo'yicha umumiy nazoratni amalga oshiradi;
- fakultet dekani bilan birgalikda amaliyot o'tkazish haqidagi rektor buyrug'i loyihasini tayyorlaydi;
- amaliyot boshlanguncha shartnoma tuzilgan amaliyot obyekti bilan aloqa o'rnatadi hamda amaliyot tartiblari va shartlarini kelishib oladi;
- amaliyot bo'yicha rahbar bilan birgalikda amaliyotning ishchi dasturini tuzadi, amaliyot obyekti imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, umumiy va yakka tartibdagi topshiriqlarni belgilaydi;
- amaliyotni kerakli jihoz va anjomlar, zaruriy me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash chorasini ko'radi;
- amaliyot oldidan bo'lib o'tadigan tashkiliy yig'ilishni uyushtiradi, talabalarni amaliyot rahbarlari va amaliyot dasturi bilan tanishtiradi;
- amaliyotga rahbarlik – tayinlangan o'qituvchiga o'quv amaliyotini yuqori saviyada mazmunli o'tkazish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalarni beradi;
- amaliyot tugagandan keyin, amaliyot bo'yicha rahbarning hisobotini qabul qiladi;
- komissiya a'zosi sifatida talabalar hisobotining himoyasida ishtirok etadi;
- amaliyot yakuni bo'yicha fakultet ilmiy kengashiga hisobot beradi.

KUNDALIK DAFTARNI RASMIYLASHTIRISH

Kundalik – bu amaliyotchi talabaning amaliyot davridagi butun ish faoliyatini aks ettiruvchi hujjat. Amaliyotchi talaba amaliyot davrida o'z ishlarini mustaqil holda rejalshatirib oladigan, uning natijalarini analiz qila oladigan bo'lishi kerak. U har kuni o'zining darsi bo'lishi yoki bo'lmashligidan qat'iy nazar, kollejga dars boshlanishidan kamida 10–15 mi-

nut oldin kelib, kunlik rejalashtirilgan ishlari 6 soatlik ish faoliyatida bajaradi, kollejdin ketish oldidan kelgusi kunda qilinadigan ishlarni rejalashtirib oladi.

Amaliyotchi talaba kunlik rejasidagi 6 soatda qilgan ishlarini (u dars o'tadimi, kuzatadimi, sinfdan tashqari tadbirlar tashkil etadimi, qat'iy nazar) kundalik daftariga aniq, ravon tushunarli qilib yozib boradi. Shaxsiy rejadin olingan kundalik reja, dars o'tish rejasi, bajarilgan ishlar, o'rganilgan va mulohazalar, berilgan metodik maslahatlar va hokazolar kundalik davriga yozib boriladi.

Amaliyotchi talaba kundalik davri, uning asosiy hujjati hisoblanadi, ular doim talabaning qo'lida bo'lishi shart (Kundalik daftar shakli ilovada berilgan).

Kundalikning birinchi betiga kollej direktori, ilmiy bo'lim mudiri, tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, guruh rahbari, maxsus fan o'qituvchisining familiyasi yozib qo'yiladi. Navbatdagi jadval esa guruh darslarining rejimi, o'quv soatlarining joylashishini anglatadi. So'ng uni tarbiyaviy ishlar rejalari aks ettiradi. Bundan keyingi varaq-larni kundalik ish rejalari, har kuni qilinadigan ishlar mazmuni, dars konspekti, tahlil qilingan darslarning analizi, guruh va alohida talabalar-ni kuzatib borish va boshqa ishlar uchun taqsimlaydi. Kundalik oxirida talaba hisobot yozib, unda o'zining faoliyatidagi yutuq va kamchiliklari, uchragan qiyinchiliklar, ularni qanday hal etgani va amaliyot haqidagi fikr-mulohazalarini ko'rsatib o'tadi.

Kundalik nihoyatda tartibli mazmunli, tutilishi bilan birga, unda bajarilgan ish, uning natijasida yaqqol ko'rinib turishi, o'tgan darslar-ning to'la mazmuni va tahlili, metodik maslahatlari, auditoriyadan tash-qari (to'garak, kecha, maslahatlar) ishlarning mazmunini muntazam yo-zib borishi lozim:

- kundalik reja, dars o'tish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi, bajara-digan ishlar, dars konspekti, dars kuzatishlar va boshqa fikr-mulohazalar kundalik daftarga yoziladi;

- amaliyotchi amaliyot davrida talaba bajargan har bir ish kunda-likda o'z aksini topishi shart;

- *kundalik talaba tomonidan nazoratida to'ldirib, hisobotga qo'shib kafedraga topshiriladi;*

- kundaliksiz hisobot himoyaga qo'yilmaydi;

- kundalik tushunarli qilib qo'lida yozilishi shart.

AMALIYOTNING NAZORAT TURLARI

Kundalik nazorat

Universitetdan elgilangan amaliyot rahbari tomonidan har kuni amaliyotchi talaba davomati tekshiriladi. Talabalarining amaliyotga qatnashishi tahlil qilinadi. Natijalari kafedra mudiriga bildirish orqali ma'lum qilinadi

Kundalik haftada bir marotaba rahbar tomonidan nazoratga olinib, talaba tomonidan har kuni to'ldirib boriladi;

Agar talaba ishga borishi mo'ljallangan o'quv muassasasida amaliyot o'tishi o'quv muassasasida so'rovnomasiga ko'ra, fakultet dekani tomonidan farmoyish asosida rektor buyrug'iga binoan ruxsat qilinadi va haftada ikki marta nazorat qilinadi va qilingan ishlari tekshiriladi.

Yakuniy nazorat yoki amaliyot hisobotini topshirish

Amaliyot yakunida talaba yozma ravishda hisobot tayyorlaydi va uni bevosita kollejdand tayanlangan rahbar imzolagan kundalik daftar bilan birga kafedrada tayanlangan rahbarga topshiradi.

Pedagogik amaliyotchi hisobotida quyidagilar yoritilishi zarur:

- kollejning qisqacha tarixi va kollej jamoasi to'g'risida ma'lumot;
- kollejda olib borgan o'quv-tarbiyaviy ishlar haqida ishlab chiqarish ta'limi va maxsus fanlar bo'yicha o'tgan dars soatlari, mavzusi, dars konspektlari;
- darsdan tashqari o'tkazgan tadbirlar va rejasi;
- o'tkazgan reyting darsi va o'quvchilarga qo'ygan reyting ballar to'g'risida ma'lumot.

Hisobot kollejda qilingan ishlarning tahlili va ularni umumlashtirishdan iborat. Shu bilan birga, hisobotda talabalarining pedagogik amaliyotini yaxshilash yuzasidan takliflari ham bayon etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Hisobot yozma ravishda topshiriladi. Hisobotni yozishda amaliyotchi kundalik daftaridan foydalanadi. Shuning uchun kundalikda o'qituvchi va amaliyotchi talabalarining darsi va darsdan tashqari mashg'ulotlar vaqtida va ularning kollejda bajargan barcha ishlari, kuzatishlari yozib boriladi. Amaliyotchi talaba hisoboti "Pedagogik amaliyot qanday o'tdi?" «Dars o'tishda va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda qanday qiyinchiliklar va muammolar bo'ldi?» degan savollarga ham javob berishi kerak.

Hisobotda amaliyotchi talaba oliy o'quv yurtida olgan nazariy bilimlari, amaliy tayyorgalik darajasi pedagogik amaliyoti davomida qanday namoyon bo'ldi va bu sohada qanday yangilaklar kiritish mumkinligi to'g'risida takliflar ham ko'rsatishi mumkin.

Amaliyot yakunida talaba o'z hisobotini kafedra tomonidan tayinlangan komissiya oldida himoya qiladi. Komissiya tarkibiga kollejdin tayinlangan amaliyot rahbari, pedagogika, psixologiya va maxsus fanlarni o'qitish metodikasi o'qituvchilari hamda kafedra tomonidan tayinlangan amaliyot rahbarlari ham kiritiladi.

Amaliyot yakuni fakultet ilmiy-uslubiy anjumani va kollejning pedagogik kengashida muhokama qilinib, amaliyotning natijalariga yakun yasaladi.

AMALIYOTNI BAHOLASH MEZONLARI

Talabalarning hisobot natijalari reyting baxolash nizomiga mos ravishda baxolanadi. Talabalarning ishini baholashda hisobotning mazmuni va sifati, shaxsiy reja bo'yicha bajarilgan ishlar xajmi va sifati olinadi.

Pedagogik amaliyot yakunida amaliyotchi talabalarni reyting ballarini hisoblashda ularning quyidagi bajargan ishlari hisobga olinadi.

- kundalik daftarining sifati;
- Reyting darslari (tuzgan testlari);
- Texnik vositalari mustaqil foydalana olishi;
- O'qitish uslublaridan unumli foydalanish;
- Kuzatgan darslarni taxlil qilishi;
- Darsdan tashqari o'tkazgan tadbirlari;
- Guruh rahbarligi;
- Psixologik tavsifinoma yoza olishi;

Himoya qilingan kundalik va hisobot kafedraga topshiriladi.

Amaliyot dasturini bajarmagan pedagogik amaliyot faoliyatiga qoniqarsiz taqriz yoki hisobot ximoyasida qoniqarsiz baxo olgan talaba ta'til vaqtida o'z hisobidan qayta amaliyot o'tishiga jo'natiladi.

XULOSA

Pedagogik amaliyotni samarali tashkil qilish uchun

- Amaliyot o'tkaziladigan korxona, muassasa va tashkilotni to'g'ri tanlash kerak;
- Talaba vaqtini to'g'ri taqsimlash;
- Amaliyot rahbarining vazifasini to'laqonli bajarishi shart;
- Amaliyot o'talgan joydagi rahbariyatdan talaba haqida fikrlarini so'rash va tavsiyanoma olish juda muhim. Bu narsa talabani o'z ustringizda yanada ishlash va taraqqiy topishga imkon beradi.
- Bundan tashqari, amaliyot o'tagan kasb – hunar kollejida foydali aloqalar o'rnatiladi, turli mutaxassislar, jixozlar va boshqa tashkilot vakillari bilan tanishadi. Bunday aloqalar esa kelajakda ko'p marotaba asqotishi mumkin.
- Demak amaliyot davomida talaba muassasaning a'zolaridan biriga aylanadi. Shunday ekan, u o'rnatilgan barcha qonun – qoidalarga amal qiladi va mutaxassis sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. И.А.Каримов «Баркамол авлуд Ўзбекистон тараққиётнинг пойдевори» -Тошкент,1997 йил.
2. А.Орзикулов .Р.Мирзаолимов А.Юлдашев Педагогик амалиётни ўтказиш буйича методик тавсиялар Наманган - 2006
3. Андреев А.А. Введение в дистанционное обучение. Материалы IV Международной конференции по дистанционному образованию, 2000. – <http://www.iet.ru/broshur/broshur.htm>.
- 4.С.Тургунов Педагогик амалиёт ўтказиш буйича методик кўрсатма. Наманган, 2000 йил.
5. Касб таълими (бино ва иншоотлар қурилиши) йўналишининг Давлат таълим стандарти.
6. Качество образования: концепции, проблемы. Матер. III Междунар. науч.-метод. конф. Под общ. Ред. А.С.Вострикова-Новосибирск., НГТУ, 2000–380 с.
7. Исмаилова Ш.Қ. Таълим жараёнида инновацион педагогик технологияларни қўллаш шарти. УрДУ – 2011 йил. Илмий – услубий қўлланма -1756

DARS TAXLILI

Dars olib boruvchi: Bekchanova S.

Fanning nomi: Arxitektura

Guruhi: 3-1

Mashg'ulot turi: ma'ruza

Darsga kirishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar tarbiya va talim berish va shu bilan birga ularning dunyoqarashini shakllantirish.

Auditoriyaning axvoli: Mashg'ulotning tashkil etilishi (mashg'ulot o'z vaqtida boshlanganligi, yo'qlama qilinishi, darsdan ko'zlangan maqsadning qo'yilishi, ko'rgazmali qurollarning tayyorlanganligi, o'qitishning texnik vositalari mavjudligi).

Dars o'z vaqtida boshlandi, o'qituvchi va o'quvchilarning darsga kerakli o'quv qurollari mavjud.

O'qituvchida zarur o'quv metodik xujjatlarning mavjudligi (guruh jurnali, ishchi reja, ma'ruza matni, taqvim reja, laboratoriya ishlari yozuvlari, topshiriq variantlari va x.k)

Guruh jurnali, ishchi dastur, taqvim mavzu reja, ma'ruza matni.

Xujjatlarning sifat darajasi, ularning davr talabiga mosligi davr talabiga javob beradi.

Mashg'ulotning dastur va kalendar-tematik rejaga mosligi

Dars ishchi dastur va taqvim mavzu rejaga mos.

Talabalar bilimni tekshirish, oldingi o'tilgan temani qisqacha takrorlash. Talabalar bilim darajasi, talabalar nutq madaniyati, talabalar bilimni tekshirishda o'qitish texnik vositalaridan foydalanish

Talabalar nutq madaniyati va bilim darajasi yaxshi.

MASHG'ULOTDA YANGI TEMANI TUSHUNTIRISH.

Mavzu: Kirish.

Tushuntirish maxorati. Mantikan ketma-ketligi. O'qituvchining predmetni bilish darajasi. Talabaga etkazish ilmiy-texnikaviy darajasi.

Mavzuni o'quvchiga etkazish darajasi yaxshi.

Mashg'ulotda o'qitishning texnik vositalari va ko'rsatmali kurollardan foydalanish darajasi. Yaxshi.

Auditoriyada talabalarning aktivligi. Muammo paydo bulish mumkin bo'lgan sharoit vujudga kelganligi. Talabalar tartib-intizomi. O'tilgan temaga talabalarning diqqati.

Darsda talabalar aktiv qatnashdi, ularning tartib intizomi yaxshi.

Mashg'ulotning yakunlovchi boskichi. Yangi o'tilgan temani mustaxkamlash.

Uyga vazifa Mavzu mustaxkamlandi va o'quvchilarga uyga vazifa berildi.

TAKLIF VA XULOSALAR

Darsda ko'rgazmali qurollardan yanada ko'proq foydalanilsa yaxshi bo'lardi.

Dars taxlili bilan tanishdim Bekjonova S.

Taxlilni tuzdi: Rajabova Xolida

Sana

Hova 2

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI
URGANCH QURILISH KASB-HUNAR KOLLEJI**

**“Tasdiqlayman”
Urganch qurilish kasb-hunar
kolleji direktori
X.D. Abdullaev**

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Qurilish chizmachiligi fanidan

Mutaxassisligi: Umumqurilish

Nazariy: 56 soat

Amaliy: 24 soat

Jami: 80 soat

**Ushbu ishchi o‘quv dastur qurilish kafedrasida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi.
25.08.2011 yil № 1**

Qurilish chizmachiligi fani o‘qituvchisi:

Rajabova Xolida

Fan bo'yicha taqvim reja

N	Bo'lim va mavzular	Dars o'tilgan sana	Ajratilgan soat	Dars turi		Dars shakli	Dars uslubi	Darsda ko'rgazmali qurol va texnik vosita	Darsda O'quvchilarning mustaqil ishi	Fanlar aro bog'liklik va fan texnika yangiliklari	Uyga vazifa
				nazariy	amaliy						
1	Kirish. Formatlar.Chi ziq turlari.Massht ablar va yozuvlar. Chizmalarni rasmiylashtiri sh tartibi.	2011 yil	2	2		Ma'ruza	Aqliy xujim	plakat	Referat yozish	Internet materiallar	o'qib kelish
2	----										
3	---										
4	-----										
5	Grafik ish №1.	2011 yil	2	2	amaliy	aprel	Plakat	Chizma chizish	Internet materiallar	Mashqni bajarish	
JAMI											

Tuzuvchi:

DARS REJASI

Fan: Qurilish chizmachiligi

Mavzu: Chizmalarga o'lchamlar qo'yish, tutashmalar

bosqich

mutaxassisligi

Darsning maqsadi:

Tarbiyaviy: O'quvchilarda ijodiy ishlash, ijodkorlikni tarbiyalash va o'z kasbiga mehr uyg'otish

Ta'limiy: O'quvchiga chizmalarga o'lcham qo'yish, tutashmalar yangi ma'lumotlar berish

Kutilayotgan natijalar: O'quvchilar o'lchamlar qo'yish qoidalarini va tutashmalarni o'rganishidan iborat

Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqt: 80 daqiqa

Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Mashg'ulot bosqichlari	Vaqt	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim texnologiya elementlari		
			uslub	shakl	vosita
1.Kirish O'quvchilar bilan salomlashish, guruh jurnalini to'ldirish va yo'qlama o'tkazish, o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish. Mashg'ulot maqsadi va vazifasini bayon qilish	5 daqiqa	Chizmalarga standart talablari bo'yicha o'lchamlar qo'yish to'g'risida asosiy ma'lumotlar			
2.Oldingi mavzuni takrorlash va baholash	15 daqiqa				
3.Yangi mavzuni tushuntirish	55 daqiqa				
4.O'tilgan mavzuni puxtalash. Yutuqlarni qayd qilish.	10 daqiqa				

Kamchiliklarni o'tish.	aytib			namoyish	Ma'ruza	Stendlar, Plakat va multimediya
5.Uy vazifasini berish.		5 daqiqa	O'lchamlar qo'yish va tutashmalar bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi.			

Tuzuvchi:

Uslubiyatchi:

MA'RUZA YOKI AMALIY MASHG'ULOTLAR GA MATERIALLAR TAYYORLASH UCHUN MA'LUMOT

Amaliyotchi talaba ma'ruza yoki amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar yaratishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim va bunda:

- materiallar muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha tasdiqlangan o'quv reja asosida, fanga ajratilgan soatlar xajmiga va ushbu fan bo'yicha ishlab chiqilgan dasturda belgilangan mavzularga to'la rioya etilgan holda tayyorlanadi;
- pedagogik va psixologik qonuniyatlar nazarda tutiladi;
- muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi masalalar beriladi, ularda zaruriy bilimni izlash va topish ehtiyojini uyg'otuvchi hamda o'zlashtirilgan materialni talabalarning o'zlari tomonidan nazoratini amalga oshiruvchi savollar turkumi beriladi;
- materiallarda bayon qilinuvchi masalalar mamlakatda yechilishi lozim bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy muammolar bilan bog'lanadi, ilg'or fan, texnika va texnologiyalarning xalq xo'jaligini tezkor rivojlantirishdagi progressiv roli ochib beriladi;
- tayyorlashda fanni egallashda muhim omillar hisoblangan tayanch so'zlar va tasviriy materiallarga alohida e'tibor beriladi;
- har bir mavzuni yoritishda, mavzuga ajratilgan soatlar miqdori hisobga olingan holda, mashg'ulotning hajmi belgilanadi va bunda material faqat ilmiy – texnikaviy va ijtimoiy – siyosiy bilimlar manbai bo'lib qolmasligiga, unda yoshlarni ma'naviy, madaniy, ruhiy – estetik, vatanparvarlik, insoniylik ruhida tarbiyalash omillari ham nazarda tutiladi;
- savollar turkumi ishlab chiqiladi va ular ketma – ketlikda yoritiladi;
- materiallar tayyorlash jarayonida foydalanilayotgan adabiyotlarning zamon talablariga javob berishi nazarda tutiladi hamda etakchi xorijiy davlatlarda chop etilgan adabiyotlardan keng va unumli foydalaniladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Urganch qurilish kasb-hunar kolleji

"Tasdiqlayman"
O'quv ishlari bo'yicha
direktor o'rinbosari

_____ " _____ " 20__ y

_____ kurs _____ guruh
_____ o'quv yili uchun ma'naviy, ma'rifiy va tarbiyaviy

ISH REJASI

Reja: " qurilish" kafedrası yig'ilishida muhokama qilindi va ma'qullandi.

Bayon: № " _____ " _____ 20__

Kafedra mudiri:

Guruh rahbari:

Urganch-20__ yil

ISH REJA

№	O'tkaziladigan tadbirlar	Bajarilish muddati	Bajarilishi bo'yicha ma'sul	Bajarilganligi to'g'risidagi belgi
I. Tashkiliy ishlar.				
1				
II. Ilmiy siyosiy tarbiya .				
1				
III. Mehnat tarbivasi.				
1				
IV. Ahlokiy tarbiya				
1				
V. Estetik tarbiya				
1				
VI Jismoniy tarbiya				
1				

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Al – Xorazmiy nomidagi
Urganch Davlat Universiteti

_____ fakulteti

_____ guruhi talabasi

_____ ning

_____ kasb-hunar kolleji

_____ - guruh « _____ »

« _____ » - kursiga o'tkazilgan

TARBIYAVIY SOATI

Mavzu: _____

Urganch -- 20 ____

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Al – Xorazmiy nomidagi
Urganch Davlat Universiteti
_____ fakulteti
_____ guruhi talabasi
_____ ga

TAVSIFNOMA

Urganch 20

O'QUVCHI SHAXSINI O'RGANISH VA UNGA PSIXOLOGIK TAVSIFNOMA TUZISH DASTURI

I. O'quvchi haqida umumiy ma'lumot

1. Kollej o'quvchisi shaxsi haqida ma'lumotlar: ismi, sharifi, yoshi, o'qiydigan guruhi, og'zaki portret, sog'ligi, jismoniy rivojlanishi;
2. Oilasi haqida ma'lumot: oila a'zolari, ularning kasb-xunarlarini, bilim saviyasi va moddiy ta'minlanganligi;
3. O'quvchining auditoriyadagi turmush sharoiti: kundalik reja, o'quvchining doimiy mehnat vazifasi, oiladagi farzandning o'qishga, mehnatga munosabati, ota-onaning farzandining uy vazifalarini bajarishdagi nazorati, ota-onaning kollej va pedagoglarga munosabati, oila a'zolarining o'zora munosabati.

O'rganish va material to'plash uslublari.

1. Kollej o'quvchisining shaxsi bilan tanishish, ota-onalari bilan suxbat
2. Guruh rahbari va predmet o'qituvchilari bilan suxbat.
3. O'quvchining guruhdoshlari va do'stlari bilan suxbat.
4. O'quvchining shaxsiy xujjatlarini o'rganish.

II. O'quvchining o'quv faoliyatlari xususiyatlari

1. O'quvchining turli predmetlarni o'zlashtirishi.
2. Uning o'quv predmetlariga qiziqishi.
3. Ba'zi o'quv predmetlariga salbiy munosabatlari sababi.
4. Predmetlar bo'yicha olgan baxolariga munosabati.
5. O'quv motivlari (sabablari) xususiyati.
6. Uy vazifalarini bajarishdagi tizimlilik, mustaqillik va qunt bilan ishlash.
7. Mustaqil bilim olish malakalarining shakllanganligi.
8. Uy vazifalarini bajarishdagi qiyinchiliklar sababi.
9. O'quv faoliyatidagi muvaffaqiyat yoki kamchiliklar sababi.
10. O'quvchining qiziqishlari va qobiliyat.

O'quvchining o'quv faoliyatlarini o'rganish va materllar to'plash uslublari

1. Predmetlar bo'yicha o'zlashtirish dinamikasi (guruh jurnali bo'yicha)

2.O'quvchi va predmet o'qituvchilari bilan suxbat.

3.O'quvchining o'quv faoliyatini kuzatish.

III. O'quvchining ba'zi o'quv faoliyati jarayoni va diqqati

tavsifnomasi.

1.O'quvchining tafakkuri va nutq xususiyatlari: zexning o'tkirligi, taxlil qilish qobiliyati, yangi materialni tushunish chuqurligi va tezligi. ilmiy terminlarni tushuntira olish, ko'rgazmali-obrazli va abstrakt tafakkur xususiyatlari.o'quvchida tafakkurning qaysi turi ustunlik qiladi? o'quvchi nutqi xususiyatlari (so'z boyligi, obrazlilik, emotsianallilik va x. k.).

O'quvchini o'rganish va material to'plash metodlari:

a) Maktabda, darsda va tashqari ishlarda o'quvchining nutqini taxlil qilish:

b) Psixologik tajriba o'tkazish.

2.O'quvchini xotira xususiyatlari, yod olish qobiliyati, yod olish turi va tili.

O'quvchini o'rganish va material to'plash metodlari:

a)O'quvchini darsda, mashg'ulotdan tashqari ishlarda kuzatish:

b) Psixologik eksperiment o'tkazish:

v) Turli predmetlar bo'yicha o'quvchilar javobgarligini taxlil qilish.

3.O'quvchi diqqati xususiyatlari. turli sharoitda o'quvchi diqqatini barqarorligi, kontsentratsiyasi, bo'linishi, ko'chishi, darsda diqqat turlarining ustunligi.

O'quvchini o'rganish va material to'plash metodlari:

a) Psixologik eksperiment;

b) O'quvchini darsda, sinfdan tashqari vaqtlarda kuzatish.

IV. Jamoada shaxslararo munosabat

O'quvchining jamoaga munosabati, uning fikrlari bilan xisoblashishi, jamoa orasidagi xurmati, boshqalar bilan muloqoti va ularni tushinishi, jamoadagi salbiy muxitga munosabati.

V. O'quvchining ijtimoiy faolligiga tavsifnoma.

O'quvchining kollej jamoat ishlarida qatnashishi, jamoa topshiriqlarini bajarishi. olgan bilim va malakalarini jamoat topshiriqlarini

bajarishda qo'llay bilishi.

O'quvchi bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanadi, qaysi to'garaklarda qatnashadi?

Ijtimoiy xayot, fan, texnika, adabiyot, san'atning qaysi turiga qiziqadi?

Qanday mavzudagi kitoblarni o'qiydi, teleko'rsatuvlarni tomosha qiladi?

O'quvchini o'rganish va material to'plash metodlari:

- a) Kursdoshlari orasida o'rtoq tanlashi;
- b) Anketa o'tkazish;
- v) Kuzatish: darsda, mashg'ulotdan tashqari ishlarda, maxsus situatsiya tashkil qilish orqali;
- g) Ota-onalar, o'qituvchi, tarbiyachilar bilan suxbat.

VI. O'quvchi xarakteri va temperamentining xususiyatlari

O'quvchi xarakterining turli sharoitlarda namoyon bo'lishi. uning tarbiyaviy sharoit bilan bog'liqligi.

O'quvchi temperamentining xususiyatlari, uning tili.

VII xulosa va takliflar

O'quvchida ijodiy xislatlarini yanada rivojlantirish va salbiy xususiyatlarni bartaraf qilish yo'llarini taklif eting.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Al – Xorazmiy nomidagi
Urganch Davlat Universiteti

_____ fakulteti

_____ guruhi talabasi

_____ ning

Pedagogik bitiruv oldi amaliyot davrida yozgan

HISOBOTI

Urganch 20_____

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

_____ fakultetining
kurs _____ guruhi
talabasi _____ ning
(talabaning familiyasi va sharifi.)

PEDAGOGIKA AMALIYOTI BO'YICHA

KUNDALIGI

Amaliyot rahbarlari

Universitetdan: _____
(lavozimi, I.Sh.O)

_____ (kafedrasi)

Kollejdan: _____
(lavozimi)

_____ (kollejning nomi)

Urganch 20 _____

Qaydlar uchun

Matnazarov Anvar Rustamovich
Hajiev Ikrom Matnazarovich
KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA PEDAGOGIK
AMALIYOTNI O'TKAZISH
(uslubiy qo'llanma)

Muharrir R. Yo'ldoshev
Texnik muharrir G'. Jumanazarov

UrDU noshirlik bo'limi O'zbekiston matbuot va axborot agentligining 19.08.2009. №148 raqamli buyrug'i bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.
Terishga berildi 30.06.2012.
Bosishga ruxsat etildi: 2.07.2012.
Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.
Tayms garniturası. Adadi 100. Buyurtma № 25.
Hisob-nashriyot tabag'i 1,0.
Shartli bosma tabag'i 0,9.

UrDU noshirlik bo'limida tayyorlandi.
Manzil: 220110. Urganch shahri,
H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.
Telefon: (8-362)-224-27-58.

UrDU bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 220110. Urganch shahri,
H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.
Telefon: (8-362)-224-27-58

ISBN 978-9943-4029-2-8

